

MUTAASSIBLIKNING MOHIYATI VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI

Muhammadurayimova Ruhsorabonu

*Islomshunoslik fakulteti, Dinshunoslik yo'nalishi
1-kurs talabasi*

So'ngi yillarda sodir bo'layotgan din bilan bog'liq bo'lgan voqealar soha mutaxassislarini mutaassiblik, radikalizm, aqidaparsatlik kabi zamonaviy dunyo tartibini izdan chiqarish bilan ajralib turadigan diniy ijtimoiy hodisalar ustida izlanishlar olib borishga majbur qilmoqda. Mutaassiblik turli shakllarda jamiyatimizning barcha jabhalarida namoyon bo'lib kelganligi sababli har doim faylasuflar, dinshunos olimlar, sotsiologlar, siyosatchilar va madaniyat, fan arboblari tomonidan katta qiziqish bildirib kelingan. Sharqda insonlarning mutaassibona harakati mutaassiblik deb, bu hodisaga g'arbda bu hodisaga fanatizm termini qo'llanilgan.

“Mutaassiblik” – arab tilidan kelib chiqqan so'z bo'lib, ma'lum bir mafkura va qarashlarga, ayniqsa, diniy-falsafiy, milliy va siyosiy sohalarida haddan ziyod, ko'r-ko'rona va hissiyotlarga berilib ergashish va ularga amal qilishni anglatadi. Ta'rifan, mutaassiblik qandaydir tushunchalarga, e'tiqod yoki dunyoqarashga sodiqlikning eng so'nggi darajasi, o'z fikrida qat'iy turib olib, boshqalarning fikrini inobatga olmaslik hamda uni inkor etish va hamisha o'zini haq deb bilishlikdir.²⁵ Qiqacha qilib aytilganda, mutaassiblik garchi dalil ko'rinib turgan bo'lsa ham, bir tomonga moyillik tufayli haqni rad etishdir.

Fanatizm va fanat atamaları lotincha fanatice (jahl, g'azab bilan va yoki fanaticus (g'ayratli, hayajonli, g'azablangan, aqidaparastlik, g'azabli) sifatlaridan kelib chiqqan bo'lib, fanaxum (muqaddas ibodatxona, xudoga bag'ishlangan joy) kabi sifat otiga asoslanadi.²⁶ Mutaassiblikning bir nechta turlari mavjud:

1. Diniy mutaassiblik;
2. Irqiy mutaassiblik;
3. Qabilaviy mutaassiblik;
4. Tabaqaviy mutaaassiblik;
5. Fikriy mutaassiblik va boshqalar.²⁷

²⁵ O'zME . Birinchi jild.Toshkent-2000.

²⁶ Terms and their translations Kleis R,Gross L.Tallin Valgus,2002.-r 442.

²⁷ <https://hidoyat.uz/57691>

Mutaassib shaxslarning o‘ziga xos belgilari mavjud bo‘lib, ularning jamiyatga va shaxsga yetkazadigan zararlari juda katta. Mutaassib kimsa bu – darg‘azab, hissiyotga berilgan, jazavali, asabiy va tez-tez salbiy his-hayajonga tushuvchi shaxsdir. Aynan undagi shu sifat omma orasidagi tarafdorlar qalbini egallashga imkon beradi. Mutaassib shaxslar voqealikka asl holatida ko‘ra olmaydi. Chunki u faqat o‘zi moyil bo‘lgan narsanigina ko‘ra oladi, inkor etib bo‘lmas darajada oshkor bo‘lsa ham, o‘zgalar ko‘rayotgan haqiqatni ko‘ra olmaydi. Mutaassib mo‘tadil ilmiy bahs orqali haqiqatga erishish yo‘llarini topishning o‘rniga, bahs va munozaralarni afzal ko‘rib, o‘z ixtilofiy qarashlarini ilgari suradi va bu harakatlar xalqlar, madaniyatlar o‘rtasida keskinlikni yanada kuchaytiradi. Ammo ba’zi o‘rinlarda ular tinch harakat orqali o‘z harakatlari maqsadlarini ochib beradilar.

Shu o‘rinda, turli soha vakillari tomonidan mutaassiblik atamasiga berilgan ta’riflarni ko‘rib chiqish bizga bu atamani kengroq tushunishga yordam beradi. Uinston Cherrillning ta’kidlashicha, “Fanatik shaxs- o‘z fikrini o‘zgartirishga qodir bo‘lmagan va mavzuni hech qachon o‘zgartirmaydigan kishidir”.

Madaniyatshunos, filolog va zamonaviy falsafa katta ta’sir nemis faylasufi Fridrex Nitshe “Albatta, mutaassiblik iroda kuchining yagona shaklidir, unga hatto zaif va o‘ziga ishonchi yo‘q odamlar ham ishona oladilar.” deya mutaassiblik haqida o‘z qarashlarini bayon qilgan.

Pravoslav e’tiqodi bo‘yicha maqolalar chop etadigan “Foma” nomli jurnalda mutaassib shaxsga “Hamma halok bo‘ladi, yolg‘iz men qutulaman deb o‘ylaydigan odamdir” deya ta’rif berilgan.²⁸

Hozirda jamiyatimizda mutaassiblikning eng keng tarqalgan turlaridan biri sifatida diniy mutaassiblikdir. Xususan, diniy mutaassiblik tarixan fanatizmning bir shakli sifatida uning boshqa turlari orasida alohida o‘rin tutgan. Aql-idrokka nisbatan hissiyotning ustun kelishi diniy mutaassiblikning namoyon bo‘lishining harakterli jihatlaridan biri hisoblanadi. Kuzatuvlarga ko‘ra, mutaassiblik turli tipda: passiv mushohada qiluvchilik, mistik dindordan to aktiv ekstremistgacha bo‘lishi mumkin. Diniy mutaassiblik turli ko‘rinishlarda: diniy norma va ahdlariga so‘zsiz rioya etishda (monaxlik), “zohidlik jasorati” (tarki dunyochilik) da namoyon bo‘lishi mumkin. Diniy mutaassiblik shaxsning o‘ziga emas, balki uning butun oilasiga, jamiyatga, hatto, butun boshli davlatga zarar yetkazishi mumkin. Mutaassiblikning asosiy ko‘rinishi bu boshqa dinlarga nisbatan murosasizlikdir. O‘z-o‘zidan bunday shaxslar jamiyat uchun xavfli emas ammo birlashib jamoa bo‘lganida katta siyosiy xavfga aylanadi. Chunki ular o‘z g‘oyalariga qattiq ishonishadi va agarda jamiyat tomonidan rad qilinsalar boshqalarning fikrini qat’iyan rad etadilar va jamiyatda ixtilofli

²⁸ “Foma”- Moskva, 2004. N6(23)-1 S.

harakatlarni keltirib chiqaradilar. Diniy mutaassiblik yoki Aqidaparastlik tushunchalari qo'llanilganda ko'pchilikning hayoliga avvalo Islom dini keladi, ammo diniy mutaassiblik yoki fanatizmni qadimgi, o'rta asrlar, hattoki yangi davr tarixida boshqa dinlar o'rtasida ham vujudga kelganini dalillar asosida ko'rishimiz mumkin. O'rta asrlarda Yevropada boshqa madaniyatlarni yo'q qilishga harakat ortidan o'z fikrlarini to'g'ri ekaniga ko'r-ko'rona ishonib, to'g'ri ishni amalga oshiryabmiz, deb hisoblab "Salib" yurishlarini amalga oshirishgan. Bundan ko'rinadiki, mutaassiblik tushunchasi ma'lum bir g'oya yoki din bilan chegaralanishi mumkin emas.

Diniy mutaassiblikni keltirib chiqadigan asosiy sabablar:

Siyosiy. Hokimiyatga erishish yo'lida din kuchidan faol foydalanadilar. Siyosatchilar o'zlarining maqsadlariga erishish uchun va mavqelarini mustahkamlab olish uchun ayrim g'oyalari sust odamlarning fanatizimidan foydalanadilar.

Diniy. Ba'zi din yoki oqimlar fanatizmni normaga aylantiradi. Odatda mutaassiblar boshqa dinlarga nisbatan tajavuzkor bo'lishadi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, mutaassibning muhiti- bu umumiy tuyg'u bilan bog'langan, astasekin o'sib boruvchi va ulkan nisbatga erishaoladigan jamoadir. Aynan shunday muhitni shakllanishiga yo'l qo'ymaslik diniy bag'rikenglik va mo'tadil diniy muhitni qo'llab-quvvatlaydigan jamiyatlar uchun birinchi galdagi vazifadir. Yuqorida ta'kidlanganidek, mutaassiblik boshqa madaniyatlar va qadriyatlar tizimini yo'q qilishga qaratilgan bo'ladi. Aqidaparastlar esa o'z g'oyasini himoya qilish uchun har qanday harakatlarga tayyor bo'lishadi.

Ko'pincha, hali hayotiy tajribaga ega bo'lmagan o'smirlar va yoshlar diniy fanatizmga duch keladi. Ko'r-ko'rona qaramlik tufayli aqidaparastlarning jamiyat bilan munosabatlari buziladi. Vaqt o'tishi bilan ular diniy sekta a'zolaridan boshqa hech kim bilan muloqot qilmay qo'yishadi. Oila a'zolari bilan munosabatlar ham juda yomonlashadi. Diniy fanatizm nafaqat psixologik qaramlik, balki uzoq muddatli psixoterapiyani talab qiladigan holat ekanligini tushunish kerak. Bunday g'oyalar ta'siriga tushib qolgan odamlarni qutqarishda oila katta ro'l o'ynaydi. O'zligini topa olmaydigan odamlar deyarli har doim o'z qarindoshlaridan ololmaydigan e'tiborni diniy oqimlardan izlaydilar. Muammo bolalikdan kelib chiqadi, shuning uchun bola bilan suhbatlashib turish foydali hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz ma'naviyat va ma'rifat ishini Vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz." Bundan ko'rinadiki, mutaassiblikka qarshi eng to'g'ri yo'l insonlarning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirishdir. Ma'rifat insonlarni har qanday ma'naviy qaramlikdan ozod qilib, jaholatdan qutqaradi. Ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat esa har doim ravnaq topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zME . Birinchi jild.Toshkent-2000.
2. Terms and their translations Kleis R,Gross L.Tallin Valgus,2002.-r 442.
3. <https://hidoyat.uz/57691>
4. “Foma”- Moskva,2004.N6(23)-1 S.